

XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QORAQALPOQ XALQINING SIYOSIY VA MADANIY TARIXI

Guljahan TASPOLATOVA

tayanch doktorant

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi

Qoraqalpoq gumanitar fanlari ilmiy-tadqiqot instituti

Nukus, O‘zbekiston

taspolatovaguljahan77@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan tashkil etilgan Amudaryo ekspeditsiyasi ma’lumotlari asosida qoraqalpoq xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti tadqiq qilingan. Tadqiqotda H. Wood, Riza-Kuli-Mirza va N. Karazin kabi ekspeditsiya ishtirokchilarining memuarlari, ilmiy hisobotlari va kartografik chizmalari birlamchi manba sifatida tahlilga tortilgan. Matnda hududning geografik joylashuvi, an’anaviy xo‘jalik yuritish usullari, xususan, dehqonchilik, chorvachilik va o‘ziga xos transport vositalari (sal) haqida qimmatli ma’lumotlar tizimlashtirilgan. Shuningdek, ekspeditsiya a’zolarining qoraqalpoq moddiy madaniyati va ta’lim tizimiga oid kuzatuvlari tarixiy kontekstda yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Amudaryo ekspeditsiyasi, qoraqalpoqlar, XIX asr, H. Wood, Chimboy, etnografiya, manbashunoslik, an’anaviy xo‘jalik, kartografiya, ijtimoiy hayot.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ИСТОРИЯ КАРАКАЛПАКСКОГО НАРОДА В ТРЕТЬЕЙ ЧЕТВЕРТИ XIX ВЕКА

Гульджахан ТАСПОЛАТОВА

базовый докторант

Каракалпакский научно-исследовательский

институт гуманитарных наук

Каракалпакское отделение

Академии наук Республики Узбекистан

Нукус, Узбекистан

Аннотация

В данной статье на основе данных Амударьинской экспедиции, организованной Российской империей во второй половине XIX века, исследуется социально-политическая, экономическая и культурная жизнь каракалпакского народа. В качестве первоисточников в исследовании проанализированы мемуары, научные отчеты и картографические чертежи таких участников экспедиции, как Г. Вуд, Риза-Кули-Мирза и Н. Каразин. В статье систематизированы ценные сведения о географическом положении региона, традиционных способах ведения хозяйства, в частности земледелии, животноводстве и уникальных средствах передвижения (салах). Также в историческом контексте освещены наблюдения участников экспедиции, касающиеся материальной культуры и системы образования каракалпаков.

Ключевые слова: Амударьинская экспедиция, каракалпаки, XIX век, Г. Вуд, Чимбай, этнография, источниковедение, традиционное хозяйство, картография, общественная жизнь.

XIX asrning ikkinchi yarmi Rossiya imperiyasining Amudaryo havzasiga ekspansiyasi bilan qoraqalpoqlar hayotida tub burilish davri bo'ldi. 1873-yilgi Xiva yurishidan so'ng tashkil etilgan Amudaryo ekspeditsiyasi mintaqa geografiyasi va etnografiyasini tizimli o'rganuvchi asosiy manbaga aylandi. M. Nurmammedov va T. Jdanko kabi olimlar bu davrni tadqiq etgan bo'lsa-da, H. Wood va Riza-Kuli-Mirza kabi xorijiy ishtirokchilarning kuzatuvlari qiyosiy tahlildan chetda qolgan.

Tadqiqotning maqsadi – ekspeditsiya a'zolari qoldirgan yozma va tasviriy manbalar asosida qoraqalpoq xalqining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnografik qiyofasini qayta tiklashdir. Shuningdek, ekspeditsiya ma'lumotlarini Ajiniyoz ijodi va toponimika bilan bog'lab o'rganish orqali tarixshunoslikdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish muhim vazifa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot obektivlik va tarixiylik tamoyillari asosida, asosan tarixiy-qiyosiy tahlil metodidan foydalanib olib borilgan. H. Wood, Riza-Kuli-Mirza va N. Karazin kabi mualliflarning memuarlari hamda kartografik chizmalari o'zaro qiyoslanib, manbalar ishonchliligi tekshirilgan. Arxiv materiallari va sayohatchilar maktublari manbashunoslik tahlili orqali tizimlashtirilgan.

Amudaryo ekspeditsiyasi ishtirokchisi, ingliz geografi H. Wood o'lka haqida muhim ma'lumotlar to'plagan. U Ulkundaryo bo'ylarida ko'p sonli chorvador qoraqalpoqlar yashashini, aholi chorvachilik, baliqchilik va sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanishini ta'kidlaydi [1;387–389]. Shuningdek, Wood Orol dengizining janubiy qirg'og'i xaritalarini yuqori aniqlikda tuzgan.

Rossiya imperiyasi Amudaryoning o'ng qirg'og'ini egallab, qoraqalpoqlarni sun'iy ravishda ikki qismga ajratib yubordi. Chorizm va Xiva xonligi yuritgan milliy adovat siyosatiga qaramay, xalqning zulmga qarshi noroziligi to'xtamadi.

Og‘ir soliqlar, muntazam ocharchilik va ma‘muriy tazyiqlar aholi o‘rtasida mavjud tuzumga nisbatan kuchli qarshilikni yuzaga keltirdi [5; 40].

Qoraqalpoq adabiyotining yirik vakillaridan biri Ajiniyoz Qosibay o‘g‘li (1824–1878) she‘rlarining ko‘pchiligi qoraqalpoqlarning Xiva xonligi tarkibidagi davriga to‘g‘ri keladi. Biroq, u mustamlaka davrida ham zulmga qarshi bo‘lgan g‘oyasini yo‘qotmadi. Masalan:

“Haydayman o‘ris arbam biyqildatib,

Sen yeding bir qo‘zimni chiyqildatib”

kabi she‘ri va boshqalar ruslar kelganidan so‘ng yozilgan [7; 382].

Amudaryo bo‘limida o‘rnatilgan harbiy-ma‘muriy tartib mahalliy aholi huquqlarini cheklab, itoatsizlik holatlarida qurolli kuch ishlatish bilan tavsiflanadi. Xususan, 1874-yilda Chimboy oqsoqollari ma‘lumot berishdan bosh tortganda harbiy tazyiqqa uchragan. Boshqaruv apparati faqat rus amaldorlari va xon ayonlaridan iborat bo‘lib, xalqni ma‘rifatdan uzoq tutish siyosati yuritilgan [5; 39–40].

Ijtimoiy ahvol og‘ir bo‘lib, kasalliklar va o‘lim darajasi yuqoriligicha qolgan. Ekspeditsiya ishtirokchisi Riza-Kuli-Mirza aholi orasida bezgak keng tarqalganini, ularni asosan forsiy qullar o‘t-o‘lanlar bilan davolaganini qayd etadi. Shuningdek, mahalliy xalqlar, ayniqsa turkmanlar, an‘anaviy xalq tabobati va veterinariya usullarini yaxshi o‘zlashtirganliklari bayon qilingan [8; 15–16].

Riza-Kuli-Mirzaning asarida o‘lka xalqlarining tashqi ko‘rinishi va tozalikka e‘tibori haqida keltirilgan ma‘lumotlar unchalik quvonarli emas. “Xalqning ko‘pchiligi ozg‘in bo‘lib keladi. Faqat nomoz o‘qishdan oldin yuvinadi. Kiyimini to‘zib egnidan tushib qolguncha o‘zgartirmaydi, juda yupun. Men hech birida toza ko‘ylak ko‘rmadim. Boylari uncha yupun emas, shunday bo‘lsa da tozalik haqida tushunchasi oz” [8;18–19]. Bunday fikrlar keltirilishiga sabab, bizning nazarimizda, rus tadqiqotchilari kelgan davrda endigina urush harakatlari tugab, mahalliy aholi hali o‘zlarini tiklab olmagan va moliyaviy tomondan inqirozli davrda bo‘lgan. Bundan tashqari, Xiva xonligiga bo‘ysinishning oxirgi yilida o‘lka

xalqlari ikki marta soliq to'lashga majbur qilingan bo'lib, o'z navbatida, bu ham xalqning moliyaviy ahvoli yomonlashuviga asosiy sabablardan biridir.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qoraqalpoqlarning an'anaviy kiyim-kechaklari haqida yanada tizimlashtirilgan ma'lumotlar paydo bo'la boshladi. 1874-yilda rassom N.N. Karazin Amudaryo oqimi bo'ylab o'tkazilgan ekspeditsiya paytida qoraqalpoqlarning kiyimlarini etnografik aniqlik bilan keltirib o'tgan [4; 50].

Bundan tashqari, ekspeditsiyaning boshqa a'zosi Riza-Kuli-Mirzaning asarida ham qoraqalpoqlarning kiyimlarini ta'riflab yozadi. "Qoraqalpoqlarning bosh kiyimi teridan qilingan konus formalı o'tkir uchli katta soppas bo'ladi. Paxtadan to'qilgan uzun oq ko'ylak va ola chopon kiyib, beliga bo'z belbog' bog'laydi. Oq bo'z ishton, teri kavush kiyadi. Ayollarning bosh kiyimi ham shunga o'xshash, biroq ular rang-barang turlarini, masalan, qizil bilan oqni aralashtirgan kiyimlarni yaxshi ko'radi. Terini qayta ishlashni bu yerda yaxshi bilishadi. Boshiga oq jawliq o'raydi, qo'llariga misdan yoki kumushdan qilingan bilakuzuk taqadi. Qulog'iga taqadigan ziraklari ham kumushdan, juda katta, yaxshi qilinmagan, ularning uchiga rus manatlari ham taqiladi. Ba'zi ziraklar juda og'ir bo'ladi, shu sababli, quloqning teshigidan o'tqazibgina qo'ymay, ip bilan quloqqa bog'lab qo'yadi. Ba'zida burunning bir tarafiga ham zirak taqadi, u ayolning yuzini juda ko'rimsiz qiladi*(bu o'rinda muallif arebekni aytyabdi). Qoraqalpoq qizlari sochini mayda burim qilib o'radi, ayollari esa sochini jawlig'ining tagiga yashirib qo'yadi. Yoki ikki burim qilib orqasiga tushirib yuboradi" [8; 18].

Amudaryo ekspeditsiyasi ma'lumotlari XIX asrning ikkinchi yarmi Chimboy shahridagi ta'lim tizimi va diniy muassasalar haqida boy tasavvur beradi. Shahardagi madrasalarda arab, fors, turk va chig'atoy tillari bilan birga "Hindusa" deb nomlangan hisob ilmi ham o'rgatilgan. Madrasa kutubxonalarida Qozonda bosilgan "Qur'on", Navoiy asarlari va Hofiz devonlari kabi noyob qo'lyozma hamda toshbosma kitoblar mavjud bo'lgan [8; 37–38].

Shahar me'morchiligi va masjidlar soni bo'yicha A. Kun va A. V. Kaulbars turlicha ma'lumotlar qoldirgan. Xususan, Kaulbars qayd etgan 6 ta masjidning

Kegeyli kanali bo‘ylab joylashuvi shahar markazining chap qirg‘oqdan o‘ng qirg‘oqqa tomon kengayganini ko‘rsatadi. Bir masjidning turli davrlarda turlicha nomlanishi esa tarixiy manbalardagi raqamlar farqlanishiga sabab bo‘lgan [2; 75–80].

“Qoraqalpoqlarning tili yawmitlarning tiliga o‘xshash, qozoq tili ulardan o‘zgacha. Shunday bo‘lsa ham bu xalqlar uncha toza bo‘lmagan chag‘atay tilida so‘zlaydi...Ularda musiqa juda past darajada rivojlanmoqda. Asosiy musiqiy asboblari – uch torli balalayka, tambur – biridan biri kichikroq bog‘lab birlashtirilgan ikki kichkina baraban, yana violenchelga o‘xshash bir asbob. Eng yaxshi muzikantlar xon saroyida: urganchli Yakub eng asosiy tamburchi, xivali Osman qo‘shiqchi, violenchelist Maxmud Qipchoqning yonidagi Mang‘itdan. Muzikant “baqsi” deb nomlanadi. Xalq raqsi lezginkaga o‘xshash, lekin sekinroq o‘ynaladi. Raqqoslar qo‘llariga ro‘mol ushlab yuradi” [8; 14–15].

Baliqchilikga bog‘liq transport qurollari ichida Sol (Sal) o‘zining oddiyligi bilan ko‘zga tashlanadi. Undan baliqchilar bahorda muz erigandan boshlab, yozda, kuzda muz qotgangacha baliq ovlash transporti quroli sifatida foydalanib kelgan. Sol – qurigan qamish yoki jekendi shom qilib bog‘lab, osti va ustidagi yog‘oshlarga arqon bilan tortib bog‘lanib, xar xil kattalikda yasaladi, uning oldi va ort tarafi, ikki yoni sal balandloq eshkak eshishga, odamning o‘tirib-turishi, ovtuzoqlarni, baliqlarni ortishga qulayroq qilib ishlangan. Informatorlarning aytishiga qaraganda, bu baliq ovlash transport quroli bilan ko‘pincha qashshoq baliqchilar baliq ovlagan. Salda yurib baliq ovlash juda qiyin bo‘lgan, uning bilan ikki-uchta odam birgalashib baliq ovlagan. Baliqchilar solni tayaw va eskakning yordamida harakatga keltirib, ikki baliqchi eshkak eshgan, bir baliqchi esa tayawni tayanib turadigan bo‘lgan. Baliqchilar kunning issiq, yomg‘irning ko‘p bo‘ladigan vaqtlari salning ustiga chertak qurib yashagan va baliq ovlagan. Qoraqalpoqlarning bu transport quroli haqida o‘z vaqtida A.V.Kaulbars va N.N.Karazin ham yozib qoldirgan edi [3; 49].

Amudaryo ilmiy ekspeditsiyasida mahalliy Chimboy uchastkasi aholisi ham ishtirok etgan: Chimboy Pir-Muxamed Karatayev qishlog‘i, Nazarxan Mamit

ovuli, Perovskiy uyezdi Kornet Utkulbay va Sultan Davlet Buchayev. 1874-yilda “Samarqand” paroxodining lotsmani mahalliy aholi vakili bo‘lgan. U Amudaryo okrugi boshlig‘ining tavsiyasiga ko‘ra Ulkundaryo bo‘ylab rus paroxodini bir necha bor boshqargan. N.Karazin keyinchalik u haqida hurmat bilan yozgan [6; 189]

Mahalliy aholining qurol-aslahalari, taomlari va xo‘jalik yuritish usullari haqida bir qancha qiziqarli ma’lumotlar to‘plangan. “Qurollar orasida piltali miltiq ko‘p uchraydi, bahosi o‘n besh so‘mgacha boradi. Uni oluvchilar juda oz. Yawmitlar orasida esa shappa miltiqlar ham bo‘ladi, ba’zida olti otar revol‘ver ham uchraydi. Qoraqalpoqlarda, yawmitlarda va boshqalarida ham Isfahonda chiqqan qayqi qilish bo‘ladi. Bahosi ikki yuz so‘mdan uch yuzgacha boradi, biroq siyrak uchraydi.

Barcha osiyoliklar singari bu yerning xalqi ham palov yeydi. Farqi: turkmanlar gurush va savzini teng miqdorda soladi, qancha boy bo‘lishsa-da yog‘ quymaydi, faqat qo‘yning quyruq yog‘iga pishirishadi. Aroqni ruslar bilan munosabatda bo‘lib yurganlarigina ichadi. Xalqning suyuqli ishimligi «ayron», uni ashigan qatiqdan qiladi. Bayram kunlarida halwa yeydi, uni pal, un, shapran*(o‘tning turi) va yog‘dan qiladi. U grek holvasiga hech ham o‘xshamaydi. Mahalliy mevalarning barchasini quritib oladi. Sha’riyat bo‘yicha yeyishga bo‘lmaydigan hayvonlarni ular harom deb hisoblaydi.

Qoraqalpoqlar boy emas xalq, ular ko‘pincha dehqonchilik qiladi. Dehqonchilikning rivojlanishi ularda juda yuqori darajada turadi. Baliqchiligi ham yaxshi. Qozoqlar bilan o‘zbeklar dehqonchilikdan uncha qochmasa ham chorvachilik, yilqichilik va savdogarlikni ko‘proq kasb qiladi. Ular Xiva va Turkistonning boshqa shaharlariga tovar sotadi.

Qoraqalpoqlar quyidagi ekinlarni ekadi: bug‘doy – 1 tanobidan 8–10 botmon hosil oladi (1 tanap – gektarning o‘ndan biri, 1 botmon 22 kg), sholi – 10–20, arpa – 7–10, juveri – 10–20, paxta, gunji – 12–15, zig‘ir – 100 botmon, savzi, burshaq, qalampir(burish), piyoz, tarbuz va qovun. Bir tanob yerdan uch yuzga yaqin qovun

olishga bo‘ladi. Burshaqning hosili oz bo‘lganda tanobidan 3–5 botmon hosil yig‘iladi. Savzining tanobidan yuz botmon hosil olinadi.

Kegeyli va Quvanshjarmaning ikki bo‘yi, Chimboy shahrining atrofi uch-besh chaqirim ko‘lamdagi yerlar qoraqalpoqlar ekkan bog‘lar bilan burkalgan. Bu bog‘larda terak tol, o‘rik, shabdol, olma, anor, jiyde o‘sadi. Shular xolos. Shunday bo‘lsa ham ularning o‘stirilishi yaxshi. Chimboy bo‘limida gul o‘stirish yo‘q. Faqat choyxonaning yonida gul bor. Bu yerda Haji – Duvan persiyanlar yashaydi (14 odam), ular ikki yarim kvadrat sajen yerga gul ekkan.

Qozoqlarning ekini ham qoraqalpoqlarniki kabi, ularning ayrimlarigina dehqonchilik qiladi, sababi o‘zlarining xususiy yeri yo‘q. Yerni qoraqalpoqlardan arendaga oladi, hosilning 1/10 dan 1/3 gacha to‘laydi. O‘zbeklar esa faqat ayrimlari demasang, dehqonchilik bilan umuman shug‘ullanmaydi.

Ekinzorlar chigirtkadan ko‘p jabrlanadi. Bir yaxshi joyi, ular ekindan ko‘ra yosh qamishni yaxshi ko‘radi, shu sababligina ekin maydonlari jon saqlab qoladi. Bu yerning o‘zida dehqonchilik yaxshi bo‘lmagan yillari g‘alla Buxorodan Amudaryo orqali qayiqda olib kelinadi. Uzum va tut oz o‘stiriladi, pichan va bedadan (jon‘ishqa) ko‘p hosil olinadi, ular o‘lka sanoatining asosiy sohalaridan birini tashkil etadi [8; 19–25].

Amudaryo ekspeditsiyasi ma‘lumotlari XIX asrning ikkinchi yarmi qoraqalpoqlar hayotidagi tub burilishlarni o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. H. Wood va boshqa sayohatchilarning qaydlari hudud geografiyasi, xo‘jalik yuritish usullari va moddiy madaniyatini tizimlashtirishga imkon berdi. Shuningdek, Ajiniyoz ijodi va Chimboy madaniy muhiti tahlili xalqning siyosiy tazyiqlar davridagi ma‘naviy-intellektual salohiyatini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Wood, H. Notes on the Lower Amu-darya, Syr-darya and Lake Aral, in 1874 / H. Wood // The Journal of the Royal Geographical Society of London. – 1875. – Vol. 45. – P. 367–413.

2. Kudiyarov, A. R. Russian Orientalists On Public Education In The City Of Chimbay / A. R. Kudiyarov // The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – 2021. – № 3 (06). – P. 75–80.
3. Ótemisov A. Qaraqalpaqlardıń balıqshılıqqa baylanıslı transport quralları tariyxınan / A. Ótemisov // Ilim hám jámiyet. – 2012. – № 3–4. – 49-b.
4. Курбанова З. И. История изучения традиционной одежды каракалпаков / З. И. Курбанова // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 2015. – № 1. – С. 50.
5. Нурмухаммедов М. К. Каракалпаки : (Краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней) / М. К. Нурмухаммедов, Т. А. Жданко, С. К. Камалов. – Ташкент : Фан, 1971. – С. 39–40.
6. Каразин Н. В низовьях Аму. Путевые очерки / Н. Каразин // Вестник Европы. – 1875. – Т. 2, № 3. – С. 189.
7. Қосбергенов Р. Қ. Қарақалпақстанның Россияға қосылыўы : Тарийхий-этнографиялық монография / Р. Қ. Қосбергенов. – Нөкис : Қарақалпақстан, 1972. – 382 б.
8. Риза-Кули-Мирза. Краткий очерк Аму-Дарьинской области / Риза-Кули-Мирза. – Санкт-Петербург, 1875. – С. 14–25, 37–38.